

## МУҲИМ МАЪЛУМОТЛАР БЕРИЛДИ

Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлигида ўтказилган брифингда ФВВ бўлим бошлиғи, подполковник Ғайрат Жўраев ёғингарчиликлар туфайли сел-тошқинларнинг олдини олиш бўйича кўрилатган чора-тадбирлар тўғрисида маълумот берди.



Фавқулодда вазиятлар вазирлиги ҳузурида сел оқимлари, сув тошқинлари ва кўчки ҳодисалари билан боғлиқ фавқулодда вазиятларнинг олдини олиш бўйича тегишли вазирлик ва идора ходимларидан иборат республика идоралараро штаби фаолияти йўлга қўйилган. Тоғ ва тоғолди ҳудудларда сел-тошқинларидан ўз вақтида огоҳлантириш мақсадида ФВВ томонидан назорат-кузатув постлари ташкил этилиб, туну-кун хизмат олиб борилмоқда. Кўчки, сел, сув тошқини хавфи мавжуд бўлган ҳудудлар аҳолиси вақтинчалик хавфсиз жойларга кўчирилди. Мутасадди ташкилотлар билан ҳамкорликда республикадаги 48 та сув омбори, 11 та сел-сув омборлари ва йирик гидротехник иншоотларнинг фавқулодда вазиятларга шайлиги ҳамда сел оқимлари ва тошқин сувларини беталафот ўтказиб юборишга тайёргарлик ҳолати ўрганиб чиқилди. Тошқинлар, сел оқимлари ва кўчки ҳодисаларининг оқибатларини бар-тароф этиш мақсадида 218 та механизациялаштирилган отрядларни кўриқдан ўтказилди.

Дарвоқе, шу ўринда айтиш лозимки, маҳаллий ҳокимликлар ҳамкор ташкилотлар билан биргаликда

дарёлар, сойлар ва каналлар ўзанларини тозалаш, қирғоқ ва дамбаларни мустаҳкамлаш тадбирларини амалга ошириш мақсадида 40 та махсус-тактик ўқув машқлари ўтказилди. Машқлар давомида 33 минг м<sup>3</sup> тупроқ, 16 минг м<sup>3</sup> қум-шағал, 237 м<sup>3</sup> бетон ишлари бажарилиб, 25 км. дарё ва сой қирғоқлари мустаҳкамланиб, магистрал каналлар тозаланишди. А-373 "Тошкент-Ўш" автомобиль йўлининг "Қамчиқ" домини қисмида ҳамда "Ангрен-Поп" электрлаштирилган темир йўлида содир бўлиши мумкин бўлган фавқулодда вазиятларнинг олдини олиш учун 15 та механизациялашган назорат-кузатув гуруҳларида фавқулодда вазиятлар, ички ишлар ва автомобиль йўллари кўмитаси ходимларининг навбатчилиги йўлга қўйилган.

Таъкидландики, 2024 йилда тошқин сувлари, сел ва сув оқимларини хавфсиз ўтказиш бўйича Йиғма манзилли дастур асосида 79 та сув объектларида муҳандислик-ҳимоя ишлари олиб борилмоқда. Аҳолини сел-тошқин ва кўчки хавфидан ўз вақтида огоҳлантириш мақсадида уяли алоқа тармоқлари орқали фуқароларга СМС хабарлари юборилляпти.

## ТАЙИНЛОВ

Фавқулодда вазиятлар вазирининг тегишли буйруғи билан подполковник Абраматов Жасурбек Дониёрович Навоий вилояти Фавқулодда вазиятлар бошқармаси бошлиғи лавозимига тайинланди.

Тайинловга қадар Жасурбек Абраматов Тошкент вилояти Фавқулодда вазиятлар бошқармаси бошлиғининг фавқулодда вазиятлар профилактикаси бўйича ўринбосари лавозимида фаолият юритган.



Фавқулодда вазиятлар вазирининг тегишли буйруғи билан подполковник Кадилов Нурали Усмналиевич Самарқанд вилояти Фавқулодда вазиятлар бошқармаси бошлиғи лавозимига тайинланди.

Тайинловга қадар Нурали Кадилов Сурхондарё вилояти Фавқулодда вазиятлар бошқармаси бошлиғи лавозимида фаолият юритган.

Шу муносабат билан вазирлик раҳбарияти Жасурбек Дониёрович ҳамда Нурали Усмналиевичга келгусидаги хизмат фаолиятларида омад ва зафарлар тилаб қолади.

## МУРУВВАТ КЎРСАТИЛДИ

Меҳр, мурувват ҳамда саховат энг муқаддас туйғулardир. Шу боис, меҳр-мурувват уйларида меҳнат қилаётган ҳамда ушбу маскандаги бошқалардан саломатлик жиҳатидан ажралиб турадиган юртдошларимиз ҳолидан хабар олиш мақсадида ФВВ ходимлари Ижтимоий ҳимоя агентлиги Тошкент шаҳар "Мурувват" ногиронлиги бўлган шахслар учун мўлжалланган эркалар интернат уйига ташриф буюришди. Меҳмонлар интернат уйининг шарт-шароитлари, ошхона ва дам олиш хоналари билан яқиндан танишишди.



Таъкидлаш жоизки, бу маскандагилар бошқалардан нафақат саломатлик жиҳатидан, балки меҳр-мурувватга ташналиклари билан ҳам ажралиб туради. Уларнинг баъзилари ногиронлиги бўлган, жисмонан ўзгалар кўмагига муҳтож инсонлардир. Бу ерда уларнинг саломатлигини тиклашга қаратилган тиббий муолажалар мунтазам амалга оширилади.

Ушбу тадбир давомида тақдим этилган зарурий воситалар, эсдалик совғалари эса истиқомат қилувчиларнинг кемтик қалбларига қувонч бағишлади. Шунингдек, маскан ҳудудига "Яшил макон" умуммиллий лойиҳаси доирасида мевали дарахт кўчатлари экилди.



## ВАТАНГА ҚАСАМЁД

Миллий гвардия Самарқанд вилояти бўйича бошқармасида муддатли ҳарбий хизматга янги чақирилган аскарларнинг Ватанга қасамёд қабул қилиш маросими бўлиб ўтди.



Унда Самарқанд ҳарбий прокуратураси, Миллий гвардия қўмондонлиги, вилоят ҳокимлиги ва бошқа мутасадди ташкилотлар вакиллари, ота-оналар ва фахрийлар иштирок этдилар.

Сўз олганлар Қуролли Кучларимиз нуфузи ва унинг замонавий имкониятлари, бугунги ватанпарвар ёшлар шижоати ва ҳарбий хизматга садоқати ни эътироф этишди. Сўнгра ёш аскарлар тантанали равишда Ватанга қасамёд қабул қилдилар. Шунингдек, концерт дастури ҳам намойиш этилди.

**Азамат ГУЛАМОВ,**  
Самарқанд ҳарбий прокурорининг катта ёрдамчиси, адлия капитани.

## АМИР ТЕМУР АВЛОДЛАРИМИЗ

Фарғона ҳарбий прокуратураси, ДХХ Чегара қўшинлари ҳамда Шарқий ҳарбий округ қўшинлари қўмондонликлари ҳамкорлигида буюк бобокалонимиз Амир Темури таваллудининг 688 йилиги муносабати билан “Биз Амир Темури авлодларимиз” шиори остида спорт мусобақалари ташкил этилди.

Беллашувларда Фарғона давлат университети ҳарбий кафедраси талабалари, ёш чегерачилар ва “Темурбеклар мактаби” ўқувчилари “Ҳарбий прокурор кубоги” учун кураш олиб бордилар.

Мусобақа якунида ғолибларга кубок, диплом, медаль ва эсдалик совғалари топширилди.

Концерт дастури ҳамда талабаларнинг бадиий чиқишлари тадбирга байрамона руҳ бағишлади.

**Шукуржон ТОШМАТОВ,**  
Фарғона ҳарбий прокурорининг катта ёрдамчиси, адлия подполковниги.

## КОРРУПЦИЯГА ҚАРШИ

Фарғона вилояти ФВБ бошлиғи ўринбосари подполковник У.Бобожонов ҳамда бошқарма масъул ходими подполковник Ғ.Умрбековлар томонидан Фарғона шаҳар ФВБ бўлимида “Коррупцияга қарши курашишни ўзимиздан бошлайлик” мавзусида учрашув ташкил этилди.

Тадбирда иштирокчиларга ҳуқуқбузарлик ва жиноятчиликлар, жумладан, йўл транспорт ҳо-дисалари, ҳарбий хизматчи ва хизматчиларнинг



Миллий гвардия Тошкент шаҳри бўйича бошқармасида муддатли ҳарбий хизматга янги чақиртилган ёш аскарларнинг Ватанга қасамёд қабул қилиш тантанали маросими бўлиб ўтди.

## ФИДОЙИЛИК РАМЗИ

Унда Олий Мажлис Қонунчилик палатасининг Мудофаа ва хавфсизлик масалалари қўмитаси аъзолари, Миллий гвардия қўмондони Р.Жўраев, Бош прокурор ўринбосари – Ўзбекистон Республикаси Ҳарбий прокурори Б.Қудратходжаев, ҳамкор вазирликлар вакиллари, фахрийлар ва ота-оналар иштирок этдилар.

Сўз олганлар Ватан посбонларига ҳамisha қасамёдига содиқ бўлиш кераклиги ҳақида мулоҳаза юритиб, эзгу тилакларини билдирдилар.

Ёш аскарлар қасамёдда битилган муқаддас сўзларни тилга олиб, Ўзбекистон халқига ва Президентига садоқатли бўлишга, Конституция талабларини сўзсиз ва виждонан бажаришга, халқ ва давлат манфаатларини ҳимоя қилишга тантанали ваъда бердилар.

Тадбирда ҳар бир муддатли ҳарбий хизматчига Президент совғаси ва китоблар жамланмаси топширилди.

Бу каби тадбирлар мамлакатимиз бўйлаб давом этмоқда.

**Камолиддин РЎЗМЕТОВ,**  
Тошкент ҳарбий прокурорининг катта ёрдамчиси, адлия полковниги.

Тошкент ҳарбий прокуратураси томонидан олис ҳудудларда жойлашган мактабларда ватанпарварлик тадбирлари мунтазам ўтказиб келинмоқда.

## ПРОКУРОРЛИК СОАТИ

Тошкент вилояти Янгийўл туманининг олис ҳудудида жойлашган “Умид”, “Дўстлик”, “Ватан” ва “Ифтихор” МФЙларидаги умумтаълим мактабларида ўтказилган “Прокурорлик соати” машғулотлари ҳам бу борадаги тадбирларнинг амалий давоми бўлди.

Мулоқотларда Ватанга муҳаббат ва садоқат, фидойилик мавзуларида ҳаётий мисоллар билан атрофлича тушунтиришлар берилди.

Шунингдек, мамлакатимизда ёшларга яратилган кенг имкониятлар ва имтиёзлар ҳақида сўз юритилди.

Ватанимизга ва халқимизга фидокорона хизмат қиладиган ўз соҳасининг етук мутахассиси бўлиб етишиш борасида тавсиялар бериб ўтилди.

Тадбир якунида ҳарбий хизматчилар томонидан ҳарбий техника ҳамда аслаҳалар намойиш этилди.

**Алишер ҚУРБОНОВ,**  
Тошкент ҳарбий прокурорининг ёрдамчиси, адлия подполковниги.

таваккалчиликка асосланган ўйинларни ўйнаши, ичкиликбозлик билан боғлиқ қонун бузилиши ҳолатлари, одоб-ахлоқ қоидаларига амал қилмаслик ҳамда коррупцион ҳолатларнинг олдини олиш, ҳар бир ходим бу каби салбий иллатлардан тўғри хулоса чиқариши зарурлиги тўғрисида сўз юритилди.

Тадбир давомида раҳбар ходимларга, қўл остидаги ҳар бир ходим билан яқка тартибда суҳбатларни доимий ўтказиб бориш, жамоада соғлом муҳитни шакллантириш, шахсий таркибининг дунёқараши, ҳуқуқбузарликлар ва жиноятчиликка қарши иммунитетни шакллантириш, тамағирлик ва коррупция ҳолатларининг олдини олишга қаратилган давра суҳбатларини доимий равишда ўтказиб бориш тўғрисида топшириқлар берилди.

**Аҳлиддин АЛИЖОНОВ,**  
Фарғона вилояти ФВБ  
Ахборот хизмат бошлиғи,  
капитан.

## МУҲИМ МАВЗУДА

“Навоийуран” ДКСининг мажлислар залида “Навоий кон-металлургия комбинати” АЖ ва “Навоийуран” ДК объектларида Ёнғин хавфсизлигини таъминлашни ташкил этиш маркази ва унинг таркибидаги бўлимларининг ҳарбий хизматчи ва хизматчилари билан Навоий вилояти ФВБ масъул ходимлари, вилоят ИИБ ҳамда ҳуқуқни муҳофаза қилувчи ходимлари иштирокида “Ёш авлодга коррупциясиз келажак қолдирайлик!” мавзусида кенгайтирилган учрашув ташкил этилди.



Учрашув давомида масъул ходимлар томонидан коррупция жамият тараққиётининг кушандаси эканлиги, жамиятда коррупцияга нисбатан мурасасиз муносабатни шакллантириш бугунги кунда ниҳоятда долзарб масала эканлиги, бу борада нафақат масъул идоралар, балки кенг жамоатчилик ҳам ҳамжиҳат ва ҳамфикр бўлиши мақсадга мувофиқлиги, қаердадир тамағирлик, порахўрлик ҳолатларига дуч келсак, ҳар биримиз бу нохуш ҳо-дисага нисбатан бефарқ бўлмаслигимиз, аксинча, коррупция иллатини таг томири билан қуритишга қаратилган саъй-ҳаракатларни виждонан бажариш кераклиги тўғрисида ўз фикр-мулоҳазаларини билдириб ўтдилар.

**Мансур УМРЗОҚОВ,** Навоий вилояти ФВБ шахсий хавфсизлик бўлими бошлиғи, капитан.

**Маъруфжон ҲАЙИТОВ,**  
НКМК АЖ ва “Навоийуран” ДК ОЕХТТЭМ  
гурӯҳ бошлиғи, катта сержант.

## Жиноятга жазо муқаррар

## ЭСКИ “КАСБИ” ОРТИДАН...

А.Н. муқаддам ўғрилиқ ва босқинчилик жиноятини содир этган. Ўта хавфли рецидивист, деб топилган. У ўтган йили ноябрь ойида пойтахтимизнинг Муқимий кўчасида жойлашган тунги клубда бир қизга тегишли бўлган нархи 4.000.000 сўмлик телефон апаратини яширинча ўғирлаб, воқеа жойидан яширинган.

– Ўша куни дугоналарим билан бирга дам олгани тунги клубга бордик, – деди судда жабрланувчи. – Шовқин-суронда бир эркак келиб нималарнидир гапирди. Гапини тушунмадим. Бироз вақтдан кейин стол устида турган телефоним йўқолиб қолди. Қидириб топа олмагач, дугонамнинг телефонидан ўзимнинг рақамимга қўнғироқ қилдим. Жавоб бермади. Шундан сўнг ички ишларга мурожаат қилдим. Кейинчалик билдимки, А.Н. мени чалғитиб телефонимни ўғирлаган экан. Тунги клуб камералари кўздан кечирилганида ҳозир темир панжара ортида ўтирган эркак ўғирлаб кетгани аниқланди. Эртаси куни А.Н. қўнғироғимга жавоб берди. Ўзимнинг телефонимни ўзимга 500.000 сўмга сотмоқчи бўлди. Биз айтилган манзилда учрашдик. А.Н. мендан айтилган пулни олган вақтида ички ишлар ходимлари томонидан ушланди. Телефонимни қайтариб олдим. Судланувчига нисбатан эса даъвоим йўқ.

Суд давлат айбловчининг хулосасини, судланувчи, жабрланувчининг кўрсатмаларини эшитиб, жиноят иши ҳужжатларини атрофлича ўрганиб, судланувчига жазо тури ва миқдорини белгилашда барча жиҳатларни эътиборга олди. А.Н. ўғрилиқ жиноятини содир этганликда айбли, деб топилди, унга 5 йил муддатга озодликдан маҳрум қилиш жазоси тайинланди.

**Фарҳод АБДУШУКУРОВ,** Жиноят ишлари бўйича Яққасарой туман судининг судьяси.



## УЧ АВЛОД

Сурхондарё вилояти ФВБ ҳамда Бойсун тумани ФВ бўлими томонидан тумандаги 2-сектор ҳудудидаги таълим муассасалари ўқувчи-ёшлари иштирокида Қуролли Кучлар тизимида кўп йиллар фидокорона, самарали хизмат қилган Мудофаа ҳамда Фавқулодда вазиятлар вазирликлари фахрийлари, тажрибали ходимлар ва эндигина хизмат фаолиятини бошлаган ёшлар ва ўқувчилар иштирокида “Уч авлод” учрашуви тadbири ўтказилди.

Учрашувда фахрийлар ёш авлодга босиб ўтган машаққатли ҳаёт йўллари ҳам-

да орттирган тажрибалари тўғрисида сўзлаб, доимий равишда ўз вазифаларига сикдидилдан фидойилик ва масъулият билан ёндашиб хизмат қилганликларини фахр билан эсга олдилар.

Тadbир доирасида ёшлар билан “Очиқ эшикларкуни” ўтказилиб, ўқувчи-ёшларга ёнғин-қутқарув отряди қутқарувчилари томонидан қутқарув асбоб-анжомлари ва техникалари таништирилиб, отряднинг иш фаолияти, қутқарув асбоб-анжомлари ва техникаларидан фавқулодда вазиятларда фойдаланиш тартиби тушунтириб берилди.

**Ф.ШАЙМАРДАНОВ,**  
Сурхондарё вилояти ФВБ ахборот хизмати етакчи мутахассиси.

**ФВБ Академиясида ёшларни ватанпарварлик ва она юртга муҳаббат, миллий қадрият ва анъаналаримизга ҳурмат, шонли тарихимизни чуқур билиш руҳида тарбиялаш мақсадида, навбатдаги уч авлод учрашуви ўтказилди.**

Унда Тошкент шаҳар Янгиҳаёт туманида истиқомат қилиб келаётган бир гуруҳ пенсиядаги ҳарбий соҳа вакиллари, байналминалчи фахрийлар, Тошкент ҳарбий прокуратураси масъул ходимлари ҳамда Академия ҳарбий хизматчилари ва курсантлар иштирок этди.

Тadbирда сўзга чиққанлар, ҳарбий соҳада узоқ йиллар хизмат қилган ёши улуғ фахрийларни ҳаёти ва меҳнат фаолияти давомида тўплаган бой тажрибаси, ёшлик давридаги ўзига хос қийинчиликлар, меҳнат палласидаги машаққатлар,



## УЧРАШУВИ

ниҳоят нуронийлик пайтида кўрсатилаётган ҳурмат-эҳтиром ҳақида ўз дил сўзларини билдирдилар.

Тadbирда сўз олганлар, ўзаро суҳбат ва мулоқотларда мамлакатимизда инсон омилига юксак эътибор берилаётгани, давлатимиз раҳбари ташаббуси билан жамиятимизнинг ҳар бир аъзосига ғамхўрлик, меҳр-оқибат кўрсатилаётгани, инсон қадриятлари, унинг орзу-ниятларини рўёбга чиқаришга

имконият яратиб бериш устувор вазифага айлангани, айниқса, ёшларимиз, бугунги кунда яратиб берилаётган улкан шарт-шароитлардан унумли фойдаланган ҳолда, жонажон Ватанимиз равнақиға муносиб ҳисса қўшиб, келажакда ўз соҳасининг етук мутахассислари бўлишлари таъкидланди.

**Фарҳоджон ХОЖАЕВ,**  
ФВБ Академияси катта ўқитувчиси, майор.

## ФАОЛ БЎЛАЙЛИК!

ФВБ Ўта муҳим ва тоифаланган объектларда Ёнғин хавфсизлигини таъминлашни ташкил этиш бошқармаси “Навоий кон-металлургия комбинати” АЖ ва “Навоийуран” Давлат корхонаси объектларида ёнғин хавфсизлигини таъминлашни ташкил этиш маркази ходимлари томонидан Навоий шаҳар ҳудудида жойлашган “Навоий кон-металлургия комбинати” АЖга қарашли марказий моддий-техник базасининг ишчи ва ходимлари билан тарғибот тadbирлари ўтказилди.

Корхонанинг мажлислар залида йиғилганлар эътиборига республикаимизда ва дунёда содир бўлаётган ёнғинлар, уларнинг келиб чиқиш сабаблари, шунингдек, республикаимиз ҳудудида жорий йилнинг ўтган даври мобайнида ис газидан заҳарланиш ҳолатлари содир бўлган фавқулодда ҳодисаларнинг инсон саломатлигига бўлган зарарлари, унинг аянчли

оқибатлари мисоллар тариқасида келтирилиб, тарғибот-тушунтириш ишлари олиб борилди. Ёнғиндан ва ис газидан огоҳлантирувчи тарғибот материаллари тарқатилди.

**Маъруфжон ҲАЙИТОВ,**  
“НКМК” АЖ ва “Навоийуран” ДК ОЁХТТЭМ гуруҳ бошлиғи, катта сержант.  
**Ҳаётжон РАЗЗОҚОВ,**  
инспектор, капитан.



## МАРДЛИК ТҮЙГУЛАРИ СИНГДИРИЛДИ



Поп тумани ФВ бўлими ташаббуси билан туманининг 2-сектор ҳудудида истиқомат қилувчи ёшлар учун “Очиқ эшиклар куни” тadbири ташкил этилди.

**Моҳиржон ВАЛИЕВ,**  
Поп тумани ФВ бўлими кичик инспектори, кичик сержант.  
**Диёрбек ХОМИДОВ,**  
бўлим кичик инспектори, кичик сержант.

Наманган вилояти ФВБда “Уч буюк қадрият: маънавият, ахлоқ-одоб, маърифат” мавзусида маънавият ва маърифат машғулоти ўтказилди.

Тadbирда Республика маънавият ва маърифат маркази “Маърифат” тарғиботчилари жамияти аъзоси Аҳрорбек Акбаров таклиф этилди. Маърузачи томонидан таълим ва тарбия хусусидаги муҳим фикрлар баён этилди.



**Акмалжон ЎРИНБОЕВ,** Наманган вилояти ФВБ бошлиғининг биринчи ўринбосари – Штаб бошлиғи, полковник.

Жигаристон участкаси Ангрен шаҳрининг шимоли-шарқий қисмида жойлашган. Ушбу участкада дастлаб 1954 йил ҳажми 100 минг м<sup>3</sup> кўчки бўлган. 1990 йилда ушбу адирлик ёнбағирлигида узунлиги 100 метргача бўлган кўчки ёриғи кузатилган. Кўчиб тушиши мумкин бўлган массанинг тахминий ҳажми 150 минг м<sup>3</sup>ни ташкил этганлиги боис, хавфли ҳудуддаги хўжаликларни хавфсиз ҳудудга кўчириш тавсия этилган.

Участкада 1991 йил 4 май куни Жигаристон сойининг чап томонида ёнбағирлиқда техникалар томонидан қирқиш ишлари жараёнида апрель ойидаги меъёрдан ортиқ кузатилган атмосфера ёнғингарчиликлари таъсирида тупроқ қатламнинг кучли намланишидан, шунингдек, 1991 йил 1 майда кузатилган магнитудаси 4–5 балли зилзила натижасида умумий ҳажми 170 минг м<sup>3</sup> бўлган

кўчки содир бўлиб, қуйи қисмида 12 м<sup>3</sup> тупроқ қалинлигида 8 та хўжаликни (54 киши) босиб қолган. Шундан сўнг ҳалок бўлган инсонларни хотирасига бағишлаб, кўчки содир бўлган жой атрофи ўраб олинди ва “Жигаристон шаҳидлар қабристони” этиб номланди.

“Қамчиқ” махсус қидирув, ёнғин-қутқарув бошқармаси томонидан “Жигаристон шаҳидлар қабристони” ҳудудида

## ШАҲИДЛАР ҚАБРИСТОНИДАГИ БОҒ

ташкил этилган боғда турли хилдаги мевали ва манзарали дарахтлар экилган бўлиб, уларга ўз вақтида шакл бериш, уларни парвариш қилиш, мевали дарахтларнинг ҳосилдорлигини ошириш мақсадида био ўғитлар ҳамда турли хилдаги зараркунанда ҳашаротларга қарши дорилаш ишлари олиб борилмоқда. Дарахтларни ва кўкаламзорларни суғориш замонавий, тежамкор, самарали бўлган томчилатиб суғориш ускуналари билан жиҳозланган.

Яратилган боғни отрядлар кесимида ажратилган бў-



либ, ҳар бир отряддан масъул шахслар бириктирилган. Улар дарахтларнинг тўғри ривожланиши, парвариши ва ўз вақтида суғориши учун масъулдирлар.

**Ш.АБДУСАТТОВА,**  
“Қамчиқ” МҚКБ жамоатчилиги билан алоқалар бўйича бош мутахассиси.



## KO'PKURASH

FVV Boshlang'ich tayyorgarlik va malaka oshirish markazida tahsil olayotgan harbiy xizmatchi va xizmatchilar o'rtasida sog'lom muhitni targ'ib qilish maqsadida ko'pkurash sport musobaqasi o'tkazildi. Markaz boshlig'i polkovnik Sh.Ayubov tinglovchilarga musobaqa shartlarini bajarishda omadlar tiladi.



Ishtirokchilar sportning oltita sharti bo'yicha kuch sinashdilar. Ko'rik-tanlovning yakuniy natijalari bo'yicha yuqori ko'rsatkichlarga erishgan tinglovchilarga markaz boshlig'ining faxriy yorlig'i va esdalik sovg'alari topshirildi.

**S.JUMANOV,**  
FVV BT va MOM bo'lim katta ofitseri, mayor.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Qorao'zak tumanidagi "Allayar Dosnazarov" OFY hududida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlar inobatga olinib, "Mahalla fuqaro muhofazasi" yig'ma guruhining FVDT tuman bo'g'ini xizmatlari bilan birgalikdagi harakatlari" mavzusida maxsus-taktik o'quv mashqi o'tkazildi.

## MAHALLADA...

Mashq davomida yer silkinishi oqibatida jabrlanganlarni qutqarish va birinchi tibbiy yordam ko'rsatish usullari mahalla fuqaro muhofazasi yig'ma guruhi a'zolari tomonidan ko'rsatib berildi.

**D.DAULETBAYEV,** Qorao'zak tumani FV bo'limi boshlig'i, mayor.

Qashqadaryo viloyati Qamashi tumanida "Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va fuqaro muhofazasi" oyligi doirasida navbatdagi tadbir o'tkazildi.

## O'QUV



Tadbir avvalida mutaxassislar tomonidan qator ijtimoiy soha obyektlari va boshqa shu kabi aholi ko'p to'planadigan maskanlarida fuqarolarga bahor mavsumida kuzatiladigan turli favqulodda vaziyatlarning oldini olish va uning oqibatlarini bartaraf etish yuzasidan muhim tavsiya va tushunchalari berilib, eslatmalar tarqatildi. Shun-

ingdek, Qo'shtamg'ali qishlog'i hududidan oqib o'tuvchi kanal va ariqlarni tozalash va qirg'oqlarini mustahkamlash, toshqin suvlari va sel oqimlarini betalafot o'tkazib yuborish bo'yicha maxsus-taktik o'quv mashqi o'tkazildi.

**Shuhrat DIYAROV,**  
Qamashi tumani FV bo'limi boshlig'i, podpolkovnik.

## MASHQ

"Qamchiq" maxsus qidiruv yong'in-qutqaruv boshqarmasi tomonidan dovondan o'tuvchi A-373 "Toshkent-O'sh" avtomobil yo'lining 214 km.da joylashgan Erto'shsoy ko'prigida "Tabiiy hamda texnogen hususiyatli favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda ularning oqibatlarini bartaraf etishda obyektlar Fuqaro muhofazasi tuzilmalari va hududiy FVDT xizmatlarining hamkorlikdagi harakatlari" mavzusida 4 bosqichdan iborat maxsus-taktik o'quv mashqi tashkil etildi.

Mashq davomida FVDT xizmatlarining favqulodda vaziyatlarning oqibatlarini bartaraf etish, jarohatlanganlarni qutqarish va ularga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha bilimlari chuqurlashtirildi.

**Sh.ABDUSATTOROVA,**  
"Qamchiq" MQYQB Jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha bosh mutaxassisi.

## "XON ATLAS" CHELLENJI

Yurtimizda "Xon atlas" festivalini o'tkazish an'anaga aylandi. "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ hamda "Navoiyuran" DK Obyektlarida yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish markazi va uning joylardagi Uchquduq, Zarafshon va Navoiy shahridagi bo'limlarida xizmat qilayotgan xotin-qizlar ham ushbu an'anaga befarq bo'lmagan holda shu kungi ish faoliyati davomida atlas, adras kabi milliy matolardan tayyorlangan liboslardan foydalanishdi.

**Ma'rufjon HAYITOV,**  
"NKMK" AJ va "Navoiyuran" DK OYXTTEM guruh boshlig'i, katta serjant.

## MUSOBAQA

Namangan shahar, Uychi va Kosonsoy tumanlarining 4 ta sektorlaridagi umumta'lim maktablarining o'quvchilari o'rtasida "Yosh qutqaruvchi" klublarining musobaqasi bo'lib o'tdi.

Sektor kesimida o'tkazilgan musobaqalarda 100 tadan ortiq umumta'lim maktablaridan 558 nafar ishtirokchi va 750 nafar o'quvchi tomoshabin sifatida ishtirok etdi.

**Qahramon SATTOROV,**  
Namangan viloyati FVB axborot xizmati boshlig'i, kapitan.

**Jo'rabek QOSIMOV,**  
Namangan shahar FV bo'limi bo'linma boshlig'i, podpolkovnik.

## OYLIK DOIRASIDA

G'allaorol magistral gaz quvurlari boshqarmasida "Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va fuqaro muhofazasi oyligi" doirasida maxsus-taktik o'quv mashqi o'tkazildi.

Dastlab maskan ishchilari tomonidan birlamchi harakatlar amalga oshirildi. Ular tomonidan evakuatsiya ishlari tashkillashtirilib, qutqaruv xizmatlariga xabar berish, korxonadagi texnologik jarayonni to'xtatish, yuqori kuchlanishli elektr tarmoqlari va gaz ta'minoti tizimini o'chirish hamda yong'inni bartaraf etish choralari ko'rildi.

Mashg'ulot davomida texnogen avariya oqibatlarini tugatish, ko'p sonli jarohatlanishlarda samarali tibbiy yordam ko'rsatish, kommunal soha tarmoqlaridagi avariya-tiklash ishlari amalga oshirilib, hamkorlikdagi harakatlar amalda sinovdan o'tkazildi.

**Iftixor UMAROV,**  
Jizzax viloyati FVB axborot xizmati boshlig'i, kapitan.

## YO'LLANMA BERILDI

O'rtachirchiq tumani FV bo'limi tashabbusi bilan "Yosh qutqaruvchi" musobaqasining tuman bosqichi o'tkazildi.

Unda jami 4 ta maktab jamoalari ishtirok etishdi. Musobaqaning tuman bosqichida 16-umumta'lim maktabining "Qalqon" jamoasi 1-o'rinni qo'lga kiritib, viloyat bosqichiga yo'llanma oldi.

**A.ZOKIROV,** O'rtachirchiq tumani P va NB katta inspektori, leytenant.  
**L.TOSHBOLTAYEV,** inspektor, oddiy askar.

Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tumanida "Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va fuqaro muhofazasi oyligi" doirasida viloyat FVB mas'ullari hamda viloyat Toshqinqa qarshi komissiyasi ishchi guruhi hamkorligida tumandan oqib o'tuvchi Qizilsuv daryosining suv taqsimlash inshootida maxsus-taktik o'quv mashqi bo'lib o'tdi.

## XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH

O'quv mashqida tegishli soha mas'ullari tomonidan yuqoridagi manzilga barcha zarur kuch-vositalarini jalb etgan holda, mazkur daryo qirg'oqlarining qariyb 300 metr qismida rostdash va mustahkamlash ishlari olib borildi.

Bajarilgan bu kabi amaliy tadbirlar bahor-yoz mavsumlarida toshqin suvlarini betalafot o'tkazib yuborishda va aholi

xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Farrux XIDIROV,**  
Qashqadaryo viloyati FVB T va TX FVB kichik inspektori, II darajali serjant.

**Sherxon QOBILOV,**  
Yakkabog'i tumani FV bo'limi boshlig'i, podpolkovnik.

## AMALIY MASHG'ULOT

NAMANGAN viloyati FVB quyi tizimlari bilan boshqarma boshlig'i tomonidan tasdiqlangan rejaga asosan shaxsiy tarkibning jangovar, jismoniy va ruhiy tayyorgarligini oshirish maqsadida, yong'in-qutqaruv bo'linmalarida tashkil etilgan gaz tutundan himoyalash xizmati bilan boshqarma 1-yong'in-qutqaruv qismidagi "Issiq tutunxona" hamda ruhiy tayyorgarlik yo'lagida amaliy mashg'ulot o'tkazildi.



Mashg'ulot davomida nafas olishga yaroqsiz muhitlarda odamlarni qutqarish, qidirish, moddiy boyliklarni xavfsiz joyga olib chiqish, sodir bo'lgan yong'in oqibatlarini bartaraf etishda jangovar harakatlari bo'yicha bilim va ko'nikmalar amalda mustahkamlandi.

**Abdunazar SOYIBNAZAROV,**  
Namangan viloyati FVB bo'lim boshlig'i, podpolkovnik.

**Ahadjon ASQAROV,**  
Namangan shahar FV bo'limi inspektori, katta leytenant.



## KENG QAMROVLI TADBIRLAR

Joriy yilning o'tgan davri mobaynida Farg'ona viloyati Beshariq tumani FV bo'limi Davlat yong'in nazorati inspektorlari va bo'lim huzuridagi 12-kasbiylashtirilgan yong'in-qutqaruv qismi shaxsiy tarkibi tomonidan mahalla faollari bilan birgalikda 6565 ta yashash uylarining yong'inga qarshi holati tekshirib chiqilib, 8789 nafar fuqaroga yong'in xavfsizligi choralari yuzasidan yo'l-yo'riq ko'rsatildi. Bundan tashqari, 10212 nafar fuqaro bilan gaz, elektr asbob-uskunalari, isitish pechlaridan xavfsiz foydalanish hamda yong'in xavfsizligi qoidalarini yuzasidan suhbatlar o'tkazildi.

Yong'in xavfsizligini ta'minlash sohasida kamchiliklarga yo'l qo'ygan 185 nafar mansabdor shaxs va fuqaroga nisbatan ma'muriy jarimalar qo'llanildi. Yong'in chiqish xavfi ostida bo'lgan 31 ta bino va inshootlarning ish faoliyati vaqtinchalik to'xtatilib, 68 ta nosoz elektr uskuna va agregatlar

manbadan uzib qo'yildi va foydalanish taqiqlandi. O'tkazilgan tekshiruvlar jarayonida aniqlangan kamchiliklarning aksariyati joyida bartaraf etilmoqda.

Shu bilan birgalikda tuman 12-yong'in-qutqaruv qismi kuch va vositalarini jalb qilgan holda 2 ta obyektida yong'in

o'chirish amaliy-taktik mashg'uloti va 5 ta obyektida yong'in o'chirish texnikalarining namoyishi tashkil etildi. Tumandagi 60 ta suv havzasi va 27 ta yer osti suv olgichlarining texnik sozligi "Suv-oqova" korxonasi xodimlari bilan hamkorlikda tekshiruvdan o'tkazildi. Obyektlarda tuzilgan 10 ta yong'in o'chirish tezkor reja va varaqalari qayta o'rganib chiqilib, kerakli qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritildi.

**O. BOYMURODOV,**  
Beshariq tumani FV bo'limi boshlig'i, mayor.

**A. TURSUNOV,**  
bo'lim boshlig'i o'rinbosari, podpolkovnik.

## DIQQAT, E'LON!

**Farg'ona viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi Hayot faoliyati xavfsizligi o'quv markazi 2024-yil 1-maydan 10-may kunlari oralig'ida quyidagi lavozimlarga tanlov e'lon qiladi:**

Hayot faoliyati xavfsizligi o'quv markazi katta o'qituvchisi – 2 nafar;

Hayot faoliyati xavfsizligi o'quv markazi o'qituvchi (uslubchi o'qituvchi) – 3 nafar.

Katta o'qituvchi uchun tanlovda tegishli mutaxassislik bo'yicha oliy ma'lumotga (magistr, diplomli mutaxassis) ega, shuningdek, ilmiy daraja (shu jumladan, fan nomzodi, falsafa doktori ilmiy darajasiga yoki tegishli mutaxassislik bo'yicha xorijiy mamlakatlarning unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga) va ilmiy unvonga ega bo'lgan va bunday daraja va unvonga ega bo'lmagan, biroq o'qituvchilik, ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarish ishlari tajribasiga ega bo'lgan shaxslar qatnashishi mumkin.

O'qituvchi (uslubchi o'qituvchi) lavozimi uchun tanlovda tegishli mutaxassislik bo'yicha oliy ma'lumotga (magistr, diplomli mutaxassis) ega bo'lgan shaxslar qatnashishi mumkin.

Talab etiladigan hujjatlar: viloyat Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi boshlig'i nomiga ariza, kadrlarni hisobga olish bo'yicha shaxsiy varaqasi, diplom nusxalari, ilmiy ishlar, ixtirolar tegishli diplomlar va attestatlar nusxalari (mavjud bo'lsa) va ilmiy ishlar ro'yxati. Tanlovda ishtirok etish uchun arizalar ilovalari bilan 2024-yil 25-aprelga qadar qabul qilinadi.

**Manzil: Farg'ona viloyati Farg'ona shahri Turon ko'chasi 94-uy.**

**Telefonlar: 73-241-67-47, 244-68-24, 241-67-37**

Farg'ona viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi ma'muriyati.

## KUNNING DOLZARB MASALASI

"Qarshi shahar suv ta'minoti" MChJning ishchi-xizmatchilari o'rtasida yong'in xavfsizligini ta'minlash, yong'inga qarshi anjomlarni soz va jangovar holatda bo'lishini, yong'in sodir bo'lgan holatlarda yong'in xavfsizligi kuch va vositalarni yetib kelguncha yong'inni bartaraf qilish borasida keng tushunchalar berilib, profilaktik tadbir o'tkazildi.

"Qarshi shahar suv ta'minoti" MChJda yong'in xavfsizligini ta'minlashda ishchi va xizmatchilarga yong'in xavfsizligi qoidalarini talablarini o'rgatish, yong'inga qarshi targ'ibot-tashviqot ishlari-

ni olib borishda ko'ngilli yong'in o'chirish guruhlarini ham xissasi juda kattadir.

**O. RADJABOV,**  
Qashqadaryo viloyati FVB OYXTTEB bosh inspektori, kapitan.

## O'RGANISH

Namangan shahar hududidagi bozorlarda "Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va fuqaro muhofazasi oyligi" doirasida o'rganish o'tkazildi.



O'rganishlar davomida "Do'stlik savdo sanoat", "Sardoba" va "Chorsu" universal dehqon bozorlarida, bozor mas'ullari bilan birgalikda hududlarda yong'in-qutqaruv avtomashinalar uchun ajratilgan yo'laklar ochildi. Jarayonda ularni oson harakatlanishi ta'minlandi, hududlardagi mavjud yer osti yong'inga qarshi suv kranlar sozligi tekshirildi, yong'in o'chirish asbob-anjomlari soz holda bo'lishi va ulardan foydalanish qoidalarini yuzasidan qo'shimcha yo'riqnomalar berildi.

**Akmaljon O'RINBOYEV,**  
Namangan viloyati FVB boshlig'ining birinchi o'rinbosari – Shtab boshlig'i, polkovnik.

**Murodjon MULLABOYEV,**  
Namangan shahar FV bo'limi boshlig'i, podpolkovnik.

Xorazm viloyati Bog'ot tumani FV bo'limi hamda hamkor tashkilotlar ishtirokida joylarda tabiiy va suyultirilgan gazdan foydalanishda xavfsizlik qoidalarini talablariga rioya etilishini o'rganish, shuningdek, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlar va yong'inlarning oldini olish bo'yicha o'rganishlar olib borildi.

## HAMKORLIKDAGI HARAKATLAR

O'quv mashqi orqali tuman hududidan oqib o'tuvchi Xo'jalik va Nayman kanallarining o'zanini tozalash ishlari olib borildi. Mashq davomida 50 nafar ishchi-xizmatchi, 10 ta muhandislik texnika jalb etilib, 150 m<sup>3</sup> tuproq, 130 p/m o'zanini tozalash ishlari bajarildi.

**Izzatbek TURSINBAYEV,**  
Bog'ot tumani FV bo'limi P va NB inspektori, oddiy askar.

## IJOBIY NATIJALARGA ERISHILDI

Hududiy Hayot faoliyati xavfsizligi o'quv markazlari pedagoglari tomonidan mahallalarda ish bilan band bo'lmagan aholi o'rtasida soha yo'nalishidagi profilaktik ishlar samaradorligini oshirish yuzasidan I-chorak davomida bir qancha profilaktik tadbirlar o'tkazilib, ijobiy natijalarga erishildi.

Respublikamiz hududidagi 323 ta mahalla fuqarolar yig'inlarida 27874 nafar ish bilan band bo'lmagan aholi o'rtasida mavsumiy sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlar: "Is gazidan zaharlanish va gaz-havo aralashmasi natijasida sodir bo'ladigan chaqnashlarning oldini olish", "Uy sharoitida qo'lbola usulda tayyorlangan konserva mahsulotlarini iste'mol qilish

orqali kelib chiqadigan botulizm kasalligining oldini olish", "Quturish – bedavo dard", "Qor ko'chkisi sodir bo'lganda aholining to'g'ri harakati", "Sel, suv toshqini xavfi tug'ilganda aholining to'g'ri harakati", "Ko'chki va o'pirilish xavfi yuzaga keldanda to'g'ri harakatlanish qoidalarini", "Zilzila vaqtida aholining to'g'ri harakatlari", "Kuchli shamol vaqtida xavfsizlik choralari ni ko'rish" mavzularida mahalla fuqarolari yig'inlari majlislar zalida hamda xonadonma-xonadon yurgan holda seminarlar, davra suhbatlari va profilaktik tadbirlar o'tkazilgan bo'lib, tadbirlar davomida aholiga 30568 dona eslatma va bukletlar tarqatildi.

**Bobir HAMIDOV,**  
FMI bo'lim boshlig'i, katta leytenant.

## IS GAZI NIMASI BILAN XAVFLI?

Is gazi rangsiz, hidsiz zaharli birikma bo'lib, tabiiy gaz, yoqilg'i, ko'mir, o'tin cho'g'li to'liq yonmasligi oqibatida hosil bo'ladi. Is gazidan shamollatish tizimi yaxshi ishlamaydigan organik moddalarni ishlab chiqaradigan korxonalarda, avtoulavlar turar parklar-

da, yangi bo'yalgan va shamollatilmagan xonalarda, shuningdek, uy sharoitlarida tabiiy gaz chiqib turganda va pechka bilan isitiladigan uylar, hammomlarda yonuvchi moddaning to'liq yonmasligi natijasida zaharlanish mumkin. Ushbu gaz gemoglo-

bin bilan kislorodga nisbatan 300 marotaba kuchli birikma – karboksigemoglobin hosil qiladi. Oqibatda gemoglobinning to'qimalariga kislorod tashish xususiyati keskin pasayib, gipoksiyaga, og'ir holatlarda esa anoksiyaga olib kelishi hamda shu tariqa inson hayotdan ko'z yumishi mumkin.

Agarda binoda gaz hidi sezilsa, oyna va eshiklarni zudlik bilan ochish, ko'chaga chiqish va qutqaruv xizmatiga qo'ng'iroq qilish kerak. Bunday holatlarda chiroq, olov yoqish, elektr uskunalarini ishga tushirish taqiqlanadi.

**Doniyor HUSANOV,**  
Chilonzor tumani FV bo'limi P va NB kichik inspektori, kichik serjant.

## DIQQAT, E'LON!

**Toshkent shahar Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi Hayot faoliyati xavfsizligi o'quv markazi 2024-yil may oyining 1-dekadasida quyidagi lavozimlariga tanlov e'lon qiladi:**

Hayot faoliyati xavfsizligi o'quv markazi katta o'qituvchisi – 2 nafar;

Hayot faoliyati xavfsizligi o'quv markazi o'qituvchi (uslubchi o'qituvchi) – 3 nafar.

Katta o'qituvchi uchun tanlovda tegishli mutaxassislik bo'yicha oliy ma'lumotga (magistr, diplomli mutaxassis) ega, shuningdek, ilmiy daraja (shu jumladan, fan nomzodi, falsafa doktori ilmiy darajasiga yoki tegishli mutaxassislik bo'yicha xorijiy mamlakatlarning unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga) va ilmiy unvonga ega bo'lgan va bunday daraja va unvonga ega bo'lmagan, biroq o'qituvchilik, ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarish ishlari tajribasiga ega bo'lgan shaxslar qatnashishi mumkin.

O'qituvchi (uslubchi o'qituvchi) lavozimi uchun tanlovda tegishli mutaxassislik bo'yicha oliy ma'lumotga (magistr, diplomli mutaxassis) ega bo'lgan shaxslar qatnashishi mumkin.

Talab etiladigan hujjatlar: Toshkent shahar Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi nomiga ariza, kadrlarni hisobga olish bo'yicha shaxsiy varaqasi, diplom nusxalari, ilmiy ishlar, ixtirolar tegishli diplomlar va attestatlar nusxalari (mavjud bo'lsa) va ilmiy ishlar ro'yxati.

**Tanlovda ishtirok etish uchun arizalar ilovalari bilan 2024-yil 25-aprelga qadar qabul qilinadi. Manzil: Toshkent shahar Yunusobod tumani Markaz-5, Sh.Rashidov ko'chasi 17-uy.**

**Telefonlar – 71-212-69-78, 71-212-69-36**

Toshkent shahar Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi.



## MUHIM SINOV

“FNQIZ” MCHJning 3-sexiga qarashli 39/8 texnologik qurilmasida maxsus-taktik o'quv-amaliy mashg'uloti o'tkazildi.

Tadbir davomida xizmatlarning harakatlariga baho berildi. Favqulodda holatlarda ishchi-xizmatчилarni hamda korxonada tovar-moddiy boyliklarini evakuatsiya qilinishiga hamda sodir bo'lgan avariya holatlarini tez va sifatli bartaraf etilishiga ahamiyat qaratildi.

**Ahliddin ALIJONOV,**  
Farg'ona viloyati  
FVB Axborot xizmati  
boshlig'i, kapitan.



## TUSHUNTIRISH ISHLARI

Metropolitenda qurilish ishlari olib borilayotgan obyektlardagi quruvchilar bilan yong'in xavfsizligi va favqulodda vaziyatlarning oldini olish va texnika xavfsizligi bo'yicha tushuntirish ishlari olib borildi. Mazkur suhbatlar davomida qurilish paytida yong'in sodir bo'lganda birinchi navbatda qanday harakatlarni amalga oshirish lozimligi yuzasidan muhim ma'lumotlar berib o'tildi.

**N. YULCHIYEV,**  
Metropolitenda YXTB kichik  
inspektori, katta serjant.



## XAVF BARTARAF ETILDI

Olmazor tumani FV bo'limi tomonidan yog'ingarchilik mavsumida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan sel oqimlari va suv toshqinlarining oldini olish hamda ularni xavf-xatarsiz o'tkazib yuborish maqsadida tuman hududidan oqib o'tuvchi Damashi kanali o'rganildi.



O'rganish davomida Olmazor tumani “Qo'shtut” MFY Kalkovuz ko'chasidagi kanal bo'yi qirg'oq mintaqasining o'pirilishi bilan bog'liq holat aniqlandi. Olmazor tumani FVB hamda Toshkent shahar kannallardan foydalanish va ularga tutash hududlarni obodon-

lashtirish boshqarmasi 8-bo'linmasining 3 ta maxsus texnikasi hamda 17 nafar shaxsiy tarkibini jalb etgan holda bartaraf etish ishlari olib borildi.

**Nuriddin XATAMOV,**  
Olmazor tumani  
FVB boshlig'i,  
podpolkovnik.

“Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va fuqaro muhofazasi oyligi” tadbirlari Qashqadaryo viloyatidagi “Tali-marjon IES” AJ korxonasida ham faol tashkil etildi.

## ISHLAB CHIQRISH OBYEKTLARIDA



Yong'in nazorati bo'yicha inspektorlar tomonidan obyekt davomida vaziyatlarning oldini olish, fuqaro muhofazasi va yong'in xavfsizligi sohasidagi shayligini yanada oshirish borasida kuchaytirilgan tartibda profilaktik va targ'ibot ishlari yo'lga qo'yilgan. Ishchi-xiz-

matchilarga doimiy ravishda profilaktik tushuntirish ishlari olib borilib, oylik doirasidagi bannerlar va eslatmalar ko'rinarli joylarga o'rnatilmoqda.

**Shaxboz BOBOMURODOV,**  
“Tali-marjon IES”  
AJ OYXTTEB  
inspektori, oddiy  
askar.

Xorazm viloyati Tuproqqal'a tumani FV bo'limi tomonidan fuqarolarga yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tabiiy va texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlar, ularning oldini olish, yuzaga kelganda qanday harakatlanish va bajarilishi zarur bo'lgan amallar bo'yicha tushuntirish, targ'ibot va tashviqot ishlari olib borilayapti.

## TARG'IBOT

Shuningdek, tumandagi barcha ijtimoiy soha obyektlarida fuqaro muhofazasi burchagi hamda mazkur oylikni targ'ib etuvchi turli o'lchamdagi bannerlar ishlab chiqilib, aholi gavjum joylar hamda idora-tashkilotlarning ko'rinarli joylariga ilindi.

Bundan tashqari, tumandagi umumta'lim maktablari, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida “Zilzila sodir bo'lganda sizning harakatingiz”, “Havo-gaz aralashmasi oqibatida chaqnash”, “Yong'inlarning oldini olish”, “Is gazidan zaharlanishning oldini olish”, “Ovqatdan zaharlanish”, “Quturish kasalligiga qarshi kurashish”, “Qrim-Kongo gemorragik isitma kasalligining oldini olish” kabi mavzularda seminarlar va davra suhbatlari o'tkazib kelinmoqda.

**Rashidbek KARIMOV,**  
Tuproqqal'a tumani FV bo'limi  
bo'linma boshlig'i, kapitan.

## BEPARVOLIKKA YO'L QO'YMASLIK ZARUR!

Buxoro viloyati FVV “Ko'kdumaloq gaz” MCHJ obyektlarda yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish bo'limi xodimlari tomonidan obyekt ishchi-xodimlari uchun profilaktik tadbir tashkil etildi.

Mazkur tadbir davomida yong'inning paydo bo'lishi sabablari, o'chirish vositalarining ishlatish tartibi, is gazidan zaharlanish oqibatlari xususida so'z yuritildi. Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish borasida joylarda amalga oshirilayotgan ishlar haqida ma'lumotlar berildi.

**Feruz SALOMOV,**  
Buxoro viloyati FVB “Ko'kdumaloq gaz”  
MCHJ OYXTTEB boshlig'i, mayor.

## FM TADBIRLARI

Jizzax viloyati Do'stlik tumanida “Aholi va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo'yicha hamkorlikdagi harakatlari” mavzusida tashkil etilgan qo'mondonlik-shtab o'quv mashqi davomida Hayot faoliyati xavfsizligi o'quv markazi tomonidan maktab va maktabgacha ta'lim tizimida “Fuqaro muhofazasi kuni” tadbirlari o'tkazildi.

Favqulodda vaziyatlarga tayyorlash bo'yicha evakuatsiya mashg'ulotlari, viktorina o'yinlari, savol-javob tarzida, sahna ko'rinishlari asosida, favqulodda vaziyatlar bolalar nigohida tanlovi, qiziqarli she'r, topishmoq aytishlar, xullas bolalarni turli favqulodda vaziyatlarga tayyorlashda interfaol metodlaridan

hamda Azamat Suyunning yosh kitobxonlarga bag'ishlangan “Ogoh bo'lg'in, bolajon!” mo'jaz she'riy to'plamlaridan foydalan-gan holda olib borildi.

O'tkazilgan mashg'ulotlardan olingan nazariy bilim-ko'nikma, malakalar shu kuni amaliy mashg'ulotlarda ekstremal vaziyatlarda, tez aniq harakatlar doirasida sinovdan o'tkazildi. Maktab o'quvchilari shu kuni favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda qanday harakat qilish kerakligini aniq ko'rsatib bera oldilar. Tadbir so'ngida besh tashabbus sport musobaqalari, badiiy havaskorlar to'garagi qatnashchilari ijrosida kuy-qo'shiqlar kuylandi.

**H.KARIMOV, B.QOBILOV,**  
Jizzax viloyati FVB HFXO'M  
o'qituvchilari.

## YONG'IN XAVFSIZLIGI

Taxiatosh tumani FV bo'limi tomonidan sodir bo'lishi mumkin bo'lgan yong'inlarning va ularda insonlarni tan jarohati olib halok bo'lish hollarining oldini olish, elektr moslamalaridan yong'in xavfsizligi qoidalariga muvofiq foydalanish tartibi haqida tushuntirib kelmoqda.

Bu o'z navbatida yong'in xavfsizligini barcha obyektlarda ta'minlash, ko'chalar qurilish ishlari davrida yong'inga qarshi chora-tadbirlarni yashash punktlarida yong'in xavfsizligi to'liq bajarilishini nazorat qilish va qurilish maydonlarida yong'in xavfsizligini ta'minlash, ko'chalar yoqalarida va aholi yashash punktlarida yong'in xavfsizligi qoida va talablari-ga zid bo'lgan bino, qurilma va to'siqlarini

aniqlash hamda bartaraf etish borasida yong'in xavfsizligi xizmatiga xususan, me'yoriy texnik-eks-pertiza yo'nalishidagi xodimlarga juda muhim va mas'uliyatli vazifalarni yuklatadi.

**T.YUSUPBOYEV,**  
Taxiatosh tumani  
FV bo'limi bo'linma  
katta inspektori,  
katta leytenant.



## ATTESTATSIYA SINOVLARI

Farg'ona viloyati FVB va tarkibiy tuzilmalaridagi bir qator mansabdor shaxslardan tadbirkorlik subyekti faoliyatini tekshirish huquqini berish yuzasidan attestatsiya sinovlari o'tkazildi.

**Zafar QODIROV,**  
Farg'ona viloyati FVB Yong'inlar profilaktikasi bo'limi boshlig'i,  
podpolkovnik.

## XAVFSIZLIK TALABLARI

Yarmarka va bozorlar hududiga yong'in-qutqaruv avtomobillari kirib-chiqishi uchun kengligi 5 m.dan kam bo'lmagan darvoza bo'lishi kerak. Agar ushbu obyektlar hududi bir gektardan oshiq bo'lsa, hudud relyefiga qarab bir nechta kirish joylari tashkil etilishi mumkin, lekin ularning soni kamida ikkita bo'lishi lozim.

Yarmarka va bozorlarning ish vaqtida ularning hududlariga kirish darvozalari va ularga borish yo'llari doimo ochiq bo'lishi lozim.

Yarmarka va bo-

zorlarda savdo rastazorlari, binolar, inshootlar, omborlar, yong'inga qarshi suv manbalari-ning joylashuvi, ularga yong'in-qutqaruv avtomobillarini olib boruvchi yo'llar, yong'inni

**M.SHARIPOV,**  
Buxoro viloyati  
FVB Muborak  
NGQChB  
OBYXTTEB 22-YQQ  
smena boshlig'i,  
kapitan.



# МАФКУРАВИЙ ИММУНИТЕТНИ ШАКЛЛАНТИРИШ — ДАВР ТАЛАБИ

Бугунги кунда бирор бир халқ ёки ҳудудни эгаллаш учун турли замонавий қурол-яроғлардан кўра, ғоявий кураш услуби анчайин маъқул кўрилган усул сифатида қаралмоқда. Маълумки, мафкура ҳар қандай жамият ҳаётида жуда зарур ҳисобланади. Чунки ёшларимизда ёт ва зарарли ғояларга қарши курашиш учун мафкуравий иммунитетни ривожлантириш лозим бўлади. Айти шу масалада ҳам мамлакатимизда самарали ислохотлар амалга оширилмоқда. Бу ислохотлар марказида шахс ва унинг баркамол қиёфаси ўз ифодасини топган.

Шахсни ҳар томонлама камол топтириш унинг маънавий-ахлоқий ва интеллектуал салоҳиятини жаҳон андозаларига мос тарзда юксалтириш устувор вазифа бўлиб келмоқда. Боиси, давлатимизнинг тараққиёти йўлида маънавий жасорат кўрсатаётган халқимизнинг инсонпарвар, фидойи, меҳнаткаш, садоқатли фарзандларини тарбиялашда, албатта, мафкура ва миллий мафкура, мафкуравий иммунитет бўлмоғи керак. Аммо шуни ҳам айтиш жоизки, мафкуравий иммунитетни ривожлантириш деганда, одамлар онгида бир хил ғояни зўр бериб кириштириш эмас, балки уларда оқ-қорани ажратиш, зарарли ғояларга қарши ҳушёр ва огоҳ бўлиш хусусиятларини тарбиялаш демакдир. Мафкуранинг диний, дунёвий, миллий, сиёсий ва бошқа кўринишлари ҳам бор.

Дарвоқе, мафкура – муайян ижтимоий гуруҳ, қатлам, миллат, жамият, давлатнинг манфаатлари, орзулари, мақсадлари ифодаланган қарашлар ва уларни амалга ошириш тизимини англатади. Унда манфаатлари ифодаланаётган гуруҳ ва қатламларнинг ўтмиши, бугунги кун ва истиқболи ўз ифодасини топган бўлади. Инсоният тарихида турли ғоялар, мафкуралар бўлган, албатта. Ўтмишда ҳар бир халқнинг, ижтимоий кучларнинг ғоявий раҳнамолари, арбоблари ўзларининг манфаат ва мақсадларидан келиб чиқиб мафкуравий таълимот ва дастурларни ишлаб чиққанлар. Мафкура муайян фалсафий, диний таълимотлар асосида яратилади, маълум илмий қарашлар, ахлоқий тамойилларга таянади. У ўз моҳияти ва таъсир кучига кўра, бунёдкор ва вайронкор мафкураларга бўлинади. Юксак мақсадларни кўзлаган ғояларга асосланган, озодлик, эркинлик, мустақиллик, тинчлик, ҳамкорлик ғоялари асосида шаклланган, ижтимоий-иқтисодий тараққиётга туртки бўла оладиган, маънавиятни юксалтириб, инсонларни улғувор ишларга чорлайдиган эзгу мақсадларга хизмат қиладиган қарашларга бунёдкор мафкура, деб айтилади. Якка ҳукмронлик, мустабидлик, тажовузкор, босқинчи-

лик, экстремистик, ақидапарастлик ғоялари асосида шаклланган, миллат ва халқларни асоратга соладиган, озодлик, эркинлик, мустақиллик, тинчлик тушунчаларга қарши бўлган мафкураларга вайронкорлик мафкуралар ҳисобланади.

Дарҳақиқат, шуни ҳам қайд этиш лозимки, миллий мафкура муайян миллатнинг этноижтимоий бирлиги сифатида мавжуд бўлиши ва ривожланишини асослаб берувчи ғоялар ва қарашлар тизими. Кўп ҳолларда миллий мафкурани битта миллат ёки халқнинг мафкураси, деб тушунимайди, у муайян давлат ёки жамиятнинг умумий мафкураси маъносини ҳам англатади. Миллий мафкура тушунчаси ҳам Ўзбекистонда яшаб, фаолият кўрсатаётган барча миллат вакилларига тегишлидир. Миллий мафкуранинг ўзагини Ўзбекистондаги турли миллат ва элат, дин ва этникод вакиллари мамлакатимизда озод ва обод Ватан барпо этиш учун бирлаштириш, халқларни ўзаро ҳурмат ва ҳамкорликка чорлаш, олийжаноб мақсадларни кўзлаш каби умуминсоний тамойилларга айланган ғоялар ташкил этади. Қолаверса, ўзлгимизни, муқаддас анъаналаримизни англаш туйғуларини, халқимизнинг кўп асрлар давомида шаклланган эзгу орзуларини, жамиятимиз олдида қўйилган олий мақсад ва вазифаларни ифодалайди. У жамиятимиздаги ҳар қандай инсоннинг этиқоди ва дунёқарашидан қатъи назар, уларнинг барчасини ягона мақсад атрофида бирлаштирадиган, халқимиз ва давлатимиз дахлсизлигини асрайдиган, эп-юртимизни буюк истиқбол сари чорлайдиган маънавий омилдир. Замонавий ахборот-коммуникация технологиялари, айниқса, интернет тараққиёт даражамизни бир неча поғонага кўтарди, узоғимизни яқин, ишимизни енгил қилди. Ёшларнинг уяли телефонга “асир” бўлиб қолаётгани, интернет ва ижтимоий тармоқлардаги маълумотлардан оқилона фойдаланишлари борасида жиддий ўйлаб кўришимиз керак.

Мафкуравий иммунитетнинг эса

жамият ҳаётини юксалтиришга хизмат қиладиган етук авлодни тарбиялаб беришдаги ўрни ҳам бениҳоя каттадир. Мафкуравий иммунитет жамиятнинг маънавий ҳаётини юксалишига тўсиқ бўлувчи турли иллатларнинг олдини олишда катта аҳамият касб этган ҳолда ҳар бир шахснинг ўзлгини эркин намоён этишга, маънавий камолотга эришишида муҳим омил бўлиб хизмат қилади. Жамиятнинг ҳар бир аъзосини ёвуз ғоялар таъсирига тушиб қолишдан асраб қолиш билан бирга, уларни соғлом фикрлашга улғайиб келаётган авлоднинг ўз халқи ва Ватани равнақи йўлида хизмат қилишини таъминлаб беради. Ёшларнинг онги ва қалбини заҳарлашга интилаётган, жамиятни парокандалик ҳолатига туширишга ҳаракат қиладиган маънавий таҳдидларнинг олдини олишда катта роль ўйнайди. Глобаллашув даврида, айниқса, ғоялар кураши кескин тус олган пайтда асосли, ҳаётий, самарали тарғибот ва ташвиқот халқни ишонтиради, руҳлантиради, улғу ва қутлуғ мақсадлар сари илҳомлантиради. Ёшларимиз онги ҳамда дунёқарашини миллий қадриятлар асосида бойитиб бориш, миллий маънавиятимизни турли таҳдидлардан асраш, ёшларни дунёқараши кенг, креатив фикрлайдиган, ташаббускор, ҳалол ва жонкуяр ҳамда муаммоли вазиятларда тўғри қарор қабул қиладиган қилиб тарбиялаш масалаларига алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Таъкидлаш жоизки, бугунги кунда дунёнинг айрим ҳудудларида маънавий йўқотишлар юз бераётгани, миллатнинг асрий қадриятлари, миллий тафаккури ва турмуш тарзи издан чиқаётгани, ахлоқ-одоб, оила ва жамият ҳаёти, онгли яшаш тарзи жиддий хавф остида қолаётганини кузатиш мумкин. Айрим мамлакатлардан кириб келаётган, миллий қадриятларимизга буткул ёт бўлган бузғунчи ғоя ва қарашлар, кишилар онгини заҳарловчи ахборотлар ёшларни нотўғри йўлларга бошлайди. Шу боис, глобаллашув даврида хилма-хил шаклда намоён бўлаётган жаҳолат ва унинг оқибатларини олдиндан англаш учун ёшлар доимо зийрак ва ҳушёр бўлиши зарур. Айниқса, ғарзли кучлар интернет орқали бузғунчи ғояларга эргаштириш, улар билан бир сафда туриб “курашишга” даъват қиладиганини ёшлар фаҳмлаши лозим, зарарли мафкуралардан ўзларини ҳимоя қила оладиган даражада билимга, соғлом қараш ва мустаҳкам этиқодга эга бўлишлари керак.

Турли хил бузуқ ақидаларга қарши иммунитетни шакллантиришда буюк аждодларимиз, диний арбоб ва уламоларимизнинг тикланаётган илмий мерослари, одоб-ахлоқ ва дин-диёнат ҳақида ёзилган асарлари, Мотуридий, Имом Бухорий, Имом Термизий, Аҳмад Яссавий, Баҳоуддин Нақшбанд, Бурҳониддин Марғинович, Аҳмад Фарғоний, Абдуҳолиқ Ғиждувоний каби уламоларнинг маънавий мерослари жуда катта аҳамиятга эга. Улардаги ватанпарварлик, инсонийлик, меҳр оқибат тушунчалари фарзандларимизни иймонли инсофли, юртимизга астойдил хизмат қилувчи юксак маънавиятли шахслар қилиб тарбиялайди. Зотан, глобаллашув жараёнида инсоният олдидаги энг муҳим масалалардан бири – ёшларнинг одоб-ахлоқи ва уларнинг таълим-тарбияси масаласидир. Бу эса ҳар бир ота-онадан ўз устида мунтазам ишлашни, болалар тарбиясига оид барча маълумотлардан бохабар бўлиб боришни талаб этади. Фарзанд тарбиясида ота-онанинг муомаласи муҳим ўрин тутди. Бола ота-она томонидан қўпол, дағал сўзлар эшитиб катта бўлса, бу унинг табиатига салбий таъсир кўрсатади.

Ёшларимизда ёт ғояларга, иллатларга қарши маънавий иммунитет шаклланмас экан, ахборот хуружлари хавфидан, ҳаётимизга, мафкурамизга кириб келаётган иллатлардан асло қутула олмаймиз. Мустаҳкам маънавий иммунитетли, ўзининг фикрларини раво айти оладиган, юқори марраларга эришувчан авлодни тарбиялаш учун ота-она, оила муҳити жуда катта аҳамият касб этади. Ўзининг кимлигини, қандай бебаҳо мерос ворислари эканини теран англаб, она юртга муҳаббат ва садоқат ҳисси билан яшайдиган, иймон-этиқоди мустаҳкам ёш авлодгина муқаддас заминимизни ёт ва бегона таъсирлардан, бало-қазолардан сақлашга, Ватанимизни ҳар томонлама равнақ топтиришга қодир бўлади. Ёшларда мустақил тафаккур ва эркин фикрлай олиш қобилиятларини шакллантириш, уларни онгига ватанпарварлик, миллийлик, халққа садоқат руҳидаги мафкураларни синдириш лозим. Фарзандларимизга шундай тарбия берайликки, улар ўз ота-боболарига, ўз тарихи, Ватани, она тилига, миллати, динига ва анъаналарига содиқ бўлиб камол топишсин.

“Vaziyat” мухбири  
Анвар ҚОБИЛОВ  
тайёрлади.



Бу қизиқ

## НЕГА, БИЛАСИЗМИ?



## Тик турган ҳолда сув ичмаслик керакми?

– Сув тўғридан-тўғри ошқозонга ўтиб кетганлиги сабабли, керакли озиқ моддалар ва витаминлар жигар ва овқат ҳазм қилиш тизимига етиб бормади. Бунинг сабаби шунда-ки, сиз тик турган ҳолда сув ичганингизда, сув жуда тез ошқозонга тушади ва бу ҳолат ўпка ва юрак фаолиятига ёмон таъсир қилиши мумкин.

– Бундан ташқари, тик турган ҳолда сув ичиш чанқоғингизни қондирмайди. Ўтирган ҳолда сув ичиш, озуқа моддалари мияга етиб боришини таъминлайди ва унинг фаоллигини оширади. Бундан ташқари, у овқат ҳазм қилишни яхшилади.

## Нега Хитой ёзуви вертикал шаклда?

– Қадимда хитойликлар ёзувларни қоғозга эмас, бамбук бўлақларига ёзишган. Шунинг учун ёзувлар горизонтал эмас, вертикал шаклда. Бу анъана ҳозирги кунда ҳам сақланиб қолганлиги сабабли ёзувлар баланддан пастга қараб ёзилади.

## Математика соҳасида Нобель мукофоти йўқми?

– Нобель мукофоти математикада йўқлигининг энг кенг тарқалган ва асосиз сабабларидан бири, Альфред Нобельнинг севган қизи, математик Госта Миттаг-Леффлерга турмушга чиққан. Шунинг учун Альфред Нобельнинг математикларга нафрати пайдо бўлган ва математика соҳасида мукофот берилмасин, деб васият қолдирган. Лекин бу назарияни тасдиқлайдиган ҳеч қандай тарихий далиллар йўқ.

– Математика бўйича Нобель мукофоти йўқлигига яна бир ишончли сабаб бор. Альфред Нобель математикага унчалик аҳамият бермаганлиги ва бу инсониятга фойда келтирадиган амалий фан ҳисобланмаганлиги сабабли математика соҳасида Нобель мукофоти йўқ. Нобель жамғармасининг асосий мақсади эса инсониятга фойда келтирган шахсларни тақдирлаш.

## Нега ошпазлар узун бош кийим кийиб юришади?

Ошпазнинг узун бош кийими бу унинг энг таниқли элементидир. Бунинг

тарихи эса XVI асрга бориб тақалади. Ўша пайтда ошпазлар эркин фикр юрита олишмаган. Уларни кўпинча оддий хато учун ҳам қамоққа ташлаб, қатл қилишган. Ошпазлар эса беркиниш учун православ черковларидан бошлана сўрашди ва натижада руҳонийлар каби узун кийим ва баланд бош кийим кийиб юрадиган бўлишди.

## Нега эркаклар аёлларга қараганда камроқ ранглари ажратишади?

– Аёллар эркаклардан кўпроқ ранглари фарқлай олишади. Бунинг сабаби жуда оддий: аёлларда ранглари идрок этиш учун жавоб берадиган хужайралар кўпроқ.

– Агар биз кечаси кўриш ҳақида гапирадиган бўлсак, аёллар бу пайтда ҳам яхшироқ кўришади, лекин фақат яқин масофада. Ўз навбатида, эркаклар бироз ёмонроқ кўришади, аммо ҳар қандай масофада жойлашган нарсаларни бир хил даражада яхши ажратишади.

## “Subway Surfers” ўйинида голиб бўлиш имконсизми?

– “Subway Surfers” ўйини асосчиси бу ўйинни ўз ўғлига бағишлаган, гап шундаки, унинг ўғли поезд рельсида вафот этган.

– Юқоридаги гаплар ёлғон, десак ишонасизми? Афсуски, ҳақиқатан ҳам ёлғон! 2020 йилнинг 29 июль санасида ушбу худди шундай мазмунда Twitterда пост қолдирилади. 30 июль

санасида ўйин яратувчилари бу ёлғон маълумот, деб чиқиш қилишган бўлса-да, аллақачон кеч бўлганди.

– Ёлғон хабар бутун дунёга тарқалиб бўлганди. Ҳаттоки, ҳозир ҳам шу ёлғон маълумотни факт, деб юрганларни учратиш мумкин. Содда бўлманг! Ҳар қандай маълумотни текшириб кўринг.

## Нега “Iphone”даги олма тишланган?

– Стив Жобс 1977 йилда Роб Ян исмли дизайнердан оддийроқ логотип тайёрлашини сўрайди. Шунингдек, унда 6 та рангли кўллаб-қувватлаши билан инқилобий экранга эга бўлган Apple II нинг дисплейи ҳам акс этиши керак эди. Ниҳоят, тишланган олма шаклидаги камалак рангли логотип дунёга келди.

– Бу олма нега тишланган, деган савол барча учун ўшанда ҳам, ҳозир ҳам қизиқ. Дизайнернинг фикрича, одамлар унинг чиндан ҳам олма эканини билишлари, помидор, деб ўйламасликлари учун ҳам логотип тишланган шаклда ифодалашга ҳаракат қилинган.

– Шунингдек, олманинг “тишланиши” инглиз тилида “bite” сўзини ифодалаган. Боиси, ўша вақтлардаёқ компьютердаги маълумот “байт” бирлигида ўлчанган. Яъни, Apple бу орқали компьютерлари маркетингини ҳам нишонга олган.

Зухра ЖўРАЕВА тайёрлади.

## ЭКОЛОГИК БИЛИМЛАР КУНИ

15 апрель дунёнинг кўплаб мамлакатларида “Экологик билимлар куни” сифатида қайд этилган.

Мазкур байрам 1992 йил БМТ томонидан Рио де Жанейрода бўлиб ўтган конференцияда экологик муаммоларга қарши курашишда барча инсонларнинг экологик маданияти, билимининг жуда муҳимлигини эътиборга олган ҳолда қабул қилинган эди. Шундан буён ушбу сана дунё мамлакатларида кенг турда нишонланиб келинмоқда.

Дунёнинг кўплаб давлатлари қатори Ўзбекистонда ҳам экологик таълим устувор йўналишлардан бири сифатида белгиланган. Шу

мақсадда мамлакатимизда Марказий Осиё атроф-муҳит ва иқлим ўзгаришини ўрганиш университети ташкил этилиб, аҳоли, айниқса, ёш авлод ўртасида экологик маданиятни юксалтириш борасида қатор ишлар амалга оширилмоқда.

Бундан кўзланган мақсад, экологик билимларни тарғиб қилиш, аҳоли ва ёшларда экологик тарбия ва маданиятни ошириш, экологик муаммоларга жамоатчилик эътиборини қаратиш ҳамда уларни биргаликда бартараф этиш, шу аснода дунёда экологик барқарорликка эришишдан иборат.

Дунё аҳолиси сони ўсиб бораётгани сари уларнинг

ҳаётий зарурликлари табиий ресурсларимизнинг тобора камайишига сабаб бўлмоқда. Қолаверса, инсонларнинг ҳаёт ва иш фаолияти туфайли, яъни антропоген омиллар сабаб атроф-муҳит кун сайин катта азият чекмоқда. Бунда одамларнинг билиб ёки билмай келтираётган зарарли хатти-ҳаракатлари замирида экологик онгнинг пастлиги ётади. Шу боис, экологик таълим ва билим атроф-муҳит муҳофазаси бўйича масалаларнинг ечими, деб қаралади.

Мамлакатимизда ўсиб келаётган ёш авлоднинг экологик саводхонлигини ошириш, экологик онги ва мада-

ниятини шакллантириш ва ривожлантириш, экологик таълим ва тарбия жараёнини самарали ташкил этишга алоҳида эътибор қаратилмоқда. “Экологик билимлар куни” нафақат экологик таълим билан шуғулланувчилар, балки мамлакатимизнинг барча аҳолиси учун ҳам катта аҳамиятга эга. Қолаверса, ҳар бир инсоннинг экологик ҳуқуқ ва мажбуриятлари бош Қомусимиз бўлмиш Конституцияда, бошқа қатор қонунлар ва қонуности ҳужжатлари билан кафолатланган.

Анвар ҚОБИЛОВ тайёрлади.



# Vaziyat

газетаси

**Муассис:**  
**Ўзбекистон**  
**Республикаси**  
**Фавқуллода**  
**вазирлар**  
**вазирлиги**

Бош муҳаррир в.б.  
**Азамат СУЙОНОВ**

Газета таҳририят  
компьютерхонасида  
саҳифаланди.

Газета ҳар ҳафтанинг  
пайшанба куни чиқади.  
Топшириш вақти – 15.00  
Топширилди – 15.00

Навбатчи:  
**А.ҚОБИЛОВ**

Таҳририятга юборилган  
материаллар қайтарилмайди  
ва изоҳ берилмайди.  
Муаллифлар фикри таҳририят  
нуқтаи назаридан фарқлиниши  
мумкин.

Газетадан олинган материаллар  
манбаси кўрсатилиши шарт.

Газета Ўзбекистон Матбуот ва  
ахборот агентлигида 2007 йил  
3 январда 0096-сон рақам  
билан рўйхатга олинган  
**ISSN 2091-5292**

**Таҳририят манзили:**  
100084, Тошкент шаҳри,  
Кичик ҳалқа йўли, 4-уй.  
**Тел.:** (71) 231-96-71  
**Телеграмм:** (90) 016-87-67

**Индекс:**  
якка обуначилар ва  
ташкilotлар учун – 382

Газета “BUSINESS PRINT DESIGN”  
босмахонасида босилди.  
Манзил: Тошкент шаҳри,  
Сўғалли ота кўчаси, 5-уй.  
Буюртма №  
Бичими: А3, ҳажми: 2,0 б.т.  
Адади – 6000 нусха